

Date: 7th April-2025

**QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASIDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISH
OMILLARI VA ULARNING TA'SIRI**

Raximova Dilfuza Mirzakasimovna

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Turizm va mehmonxona biznesi kafedrasida katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Qoraqalpog'istonda turizm sohasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillari, turistik hudud raqobatbardoshligining umumiy kontseptual modeli, turistik hududlar raqobatbardoshligining 5 ta asosiy omillari ko'rsatib berilgan. Bundan tashqari Qoraqalpog'iston turizm rivojlanish imkoniyatlari, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ishlar, taklif va tavsiyalar keltirilgan.

Hozirgi vaqtda turizmning rivojlanishiga butunjahon globallashuvi jarayoni va unda sodir bo'layotgan turli xil hodislar hamda qator omillar turli yo'llar bilan ta'sir ko'rsatmoqda. Jahondagi chuqur geosiyosiy o'zgarishlar nafaqat alohida mintaqalar turizmini, balki jahon turizmining barqaror va xavfsiz rivojlanishni ta'minlashga yangicha yondashuvlarni talab qiladi. Globallashuv jarayoni nafaqat turizm integratsiya jarayonlarini jadallashishiga, balki mamlakatlarning daromad darajasi bo'yicha tabaqalanishining chuqurlashishiga, xalqaro aloqa tizimlariga, shu jumladan xalqaro turizmni rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatadigan tahdidlarning paydo bo'lishiga olib kelishi mumkin.

Bugungi kunda ma'lum bir xududga turistik tashriflar sonini ko'paytirish va turistik ob'ektlar jozibadorligini oshirish dolzarb bo'lib bormoqda. Turizm sohasi nafaqat alohida mamlakatlar rivojlanishining ichki tarkibiy qismlariga, ularning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy, ma'rifiy faoliyat sohalariga, balki xalqaro iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy va gumanitar munosabatlarning holatiga ham bevosita ta'sir qiladi. Turizm sohasining faqat dam olish bilan bog'liq bo'lgan hodisa sifatidagi an'anaviy g'oyasidan voz kechgan holda, uning mamlakatlar va ularning mintaqalari, mahalliy aholining turmush tarziga ta'siri nuqtai nazaridan ko'rib chiqish kerak muhim hisoblanadi.

Turistik hududlar raqobatbardoshligini oshirish masalasi turli tadqiqotlar ob'ekti bo'lib, uni o'rganish jarayonida 16 strategik rejalashtirish va menejment, turistik hudud marketingi, bozordan joy olish (positioning), imij va brending, narx raqobatbardoshligi, atrof muhit muhofazasi, barqaror rivojlanish kontseptsiyasi kabi metodologik yondashuvlar qo'llanilganligini ko'rishimiz mumkin.¹

Qoraqalpog'iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib chiqishda biz qo'ydagi tadqiqotlarni o'rganib chiqdik. Turistik hudud raqobatbardoshligining umumiy kontseptual modeli J.Kruch va J. Ritchi tomonidan 1999

¹ N.S. Ibragimov. Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari [Matn] : monografiya / - Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020



Date: 7th April-2025

yilda taklif qilinib, 2005 yilda takomillashtirilgan.² Olimlar tomonidan tanlangan tadqiqot metodologiyasi turizm sohasi mutaxassislari (hududdiy boshqaruvchilar) bilan amalga oshirilgan interv'yu hamda nazariy tadqiqotlarning uyg'unlashuvi natijalariga asoslanadi. Tadqiqotning metodologik asosi "Ieraxik tahlil uslubi - ITU" deb ataladi (Analytic Hierarchy Process – AHP, Metod analiza iyerarxiy - MAI). ITU — murakkab muammolar bo'yicha qaror qabul qilishda matematik usullar orqali tizimli yondashuvni qo'llashni nazarda tutib, AQShlik matematik Tomas Saati tomonidan ishlab chiqilgan.³ Ushbu metodologiyaga asoslanib, G.Kruch va B.Ritchi turistik hududlar raqobatbardoshligining 36 ta asosiy omillarini ajratib, quyidagi 5 ta omil eng muhim degan xulosaga kelganlar:

Birinchi guruh "**Qo'llab-quvvatlovchi omillar va resurslar**" deb ataladi va quyidagilarni qamrab oladi:

- **infratuzilma** (yo'llar, transport tizimi, sog'liqni saqlash tizimi, kommunikatsiya tizimi, davlat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlar va davlat tashkilotlari, ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik, huquq tartibot organlari, bank tizimi, ta'lim tizimi);

- **qo'llab-quvvatlovchi resurslar** (mahalliy inson resurslarining sifati, orttirilgan bilim va kapital resurslar, ta'lim va tadqiqot institutlari, moliya institutlari, aholiga xizmat ko'rsatishning turli sohalari);

- **mamlakatga kirishning soddaligi** (havo transportiga oid qonunchilikdagi o'zgarishlar, kirish viza va ruxsatnomalari, xalqaro yo'l va havo transporti aloqalari, turli transport vositalari o'rtaida raqobatning mavjudligi);

- **mehmondo'stlik** (aholining tashrif buyuruvchilarga nisbattan iliq munosabati, yordam qo'lini cho'zishga moyillik darajasi);

- **ishbilarmonlik** (turistik hududda faoliyat yurgizayotgan tadbirkorlarning ishbilarmonlik qobiliyati);

- **siyosiy iroda** (barcha siyosatchilar va boshqaruv organlarida band kishilar turizm sohasi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida belgilovchi ekanini faqat tan olishi emas balki mafkurasiga aylangan bo'lishi).

Ikkinchi guruh "**Asosiy resurslar va diqqatga sazovor joylar**" bo'lib, quyidagi omillarni qamrab oladi:

- **maxsus tadbirlar** (turistlarni jalb qilishga qodir bo'lgan festivallar, bayramlar, sport o'yinlari va hokazolar);

- **tabiat va iqlim** (turistik hududning tabiiy diqqatga sazovor joylari, qulay iqlimning mavsumiy davomiyligi);

- **madaniyat va tarix** (turistik hududning madaniy va tarixiy merosi);

- **xilma-xil turistik faoliyat** (turistik hudud tashrif buyuruvchilarga turli sayohat tajribalari va imkoniyatlarini taklif qila olishi);

- **ko'ngilochar joylar** (teatr, kontsert, kulgu festivallari, opera va sirk shular jumlasiga kiradi);

² Crouch, G.I. and J.R.B. Ritchie (2005). 'Application of the Analytic Hierarchy Process to Tourism Choice and Decision Making: A Review and Illustration Applied to Destination Competitiveness', Tourism Analysis,;

³ Саати Т.Л. Об измерении неосознаемого. Подход к относительным измерениям на основе главного собственного вектора матрицы парных сравнений // Журнал "Cloud Of Science". 2015. Т. 2. № 1



Date: 7th April-2025

- **turizm infratuzilmasi** (joylashtirish muassasalari, restoranlar, transport vositalari, hordiq chiqarish joylari, tematik bog'lar, muzeylar, san'at galeriyalari, ko'rgazma va konferentsiya markazlari, aeroportlar);

- **bozor aloqalari** (sayyohlarni vujudga keltiruvchi bozorlar bilan chuqur madaniy va iqtisodiy aloqalarning mavjudligi).

Uchinchi guruh "**Turistik hudud menejmenti**" deb ataladi va quyidagi omillarni o'zida qamrab oladi:

- **boshqaruv** (turistik hududni boshqaruvchi tuzilma faoliyatining sifati va nufuzi);

- **marketing** (marketing faoliyati orqali turistik hududning tashrif buyuruvchilarni jalb qila olish va ehtiyojlarini qondirish qobiliyati);

- **xizmat ko'rsatish sifati** (tashrif buyuruvchilarga ijobiy sayohat tajribasini yetqaza olish qobiliyati);

- **axborot va tadqiqot** (qaror qabul qilish jarayonida qo'l keladigan axborotlarni yig'ish tizimining shakllanganligi); - inson resurslarini rivojlantirish (turizm sohasi uchun malakali kadrlarni tayyorlash dasturlarining mavjudligi);

- **moliya va kredit tizimi** (turizm sohasini rivojlantirish moliyaviy dasturlarining mavjudligi);

- **tashrif buyuruvchilar menejmenti** (sayyohlarning salbiy yoki ijobiy taassurotlarini nazorat qilish dasturlari);

- **inqirozni boshqarish** (krizis menejment) (favqulodda holatlar va inqiroz davrlardan chiqib ketishga tayyorgarlik darajasi);

- **resurslarni boshqarish** (mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ularni asrab-avaylashga qilinadigan harakatlar ko'lam).

To'rtinchi guruh "**Turistik hududga oid siyosat, rejalashtirish va rivojlantirish strategiyalari**" deb ataladi va u quyidagi omillarni o'zida qamrab oladi:

- **tizimli yondashuv** (turistik hududda faoliyat ko'rsatadigan barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining butun tizimning bir qismi ekanligini anglash darajasi);

- **ustuvor rivojlanish yo'nalishlari** (davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan rivojlanish ustuvor yo'nalishlarining tanlanganligi);

- **istiqlolni ko'rish** (turistik hududni tashkil etuvchi barcha jismoniy va yuridik shaxslarning kelajakni ko'ra bilish qobiliyati);

- **branding va bozordan joy olish** (turistik hududning imijini shakllantirish uchun amalga oshirilgan tadbirlar); - rivojlanish (turizmni rivojlantirish siyosatining sifati va muvofiqligi);

- **raqobatchi va hamkorlar tahlili** (turistik hudud raqobatchilarini global ko'lamda tahlil qilish asosida rivojlanish strategiyalarini belgilash);

- **monitoring va natijalarni baholash** (raqobatbardoshlikni oshirish maqsadida amalga oshirilayotgan ishlarining natijalariga baho berish, monitoring o'tkazish hamda dasturlarni uzluksiz takomillashtirib borish);

- **audit** (erishilgan moliyaviy natijalarning davriy auditini amalga oshirish evaziga, turistik hudud raqobatbardoshligining kuchli va kuchsiz tomonlarini aniqlashga erishiladi).



Date: 7th April-2025

Oxirgi, beshinchi guruh “**Kuchaytiruvchi va belgilovchi omillar**” deb atalib, turistik hudud raqobatbardoshligini oshirish yoki aksincha chegaralashga xizmat qiluvchi quyidagi omillarni o‘zida qamrab oladi:

- **geografik joylashuv** (sayyohlarni vujudga keltiruvchi asosiy bozorlarga nisbattan geografik joylashuv);

- **xavfsizlik va tinchlik** (turistik hududning sayyohlar xavfsizligini ta'minlash darajasi);

- **narx-navo** (turistik hududning hamyonbopligiga ta'sir etuvchi omillar);

- **o‘zaro bog‘liqlik** (boshqa turistik hududlarga nisbattan yaqin yoki uzoqda joylashganligi);

- **mashhurlik va imij** (turistik hududning mashhurlik darajasi);

- **sig‘im** (turistik hududda shakllantirilgan turistik infratuzilmaning sig‘imi).

Qiyosiy ustunliklar turistik hududdagi mavjud barcha resurslarni qamrab olsa, raqobat ustunliklari ayni resurslardan samarali foydalanishni bildiradi. Ya'ni, turizmni rivojlantirishning yaxlit kontseptsiyasi va turizmni iqtisodiyotning strategik sektoriga aylantirishning muhim sharti, sohada innovatsion boshqaruv usullarini qo‘llash bo‘lib hisoblanadi.

Madaniy meros, noyob tabiiy diqqatga sazovor joylar, shuningdek, etnik an‘ana va urf-odatlarining rang-barangligi Qoraqalpog‘istonda turizm rivojiga xizmat qilayotgan muhim omillardandir. Turistlarga taqdim etilayotgan infratuzilma va xizmatlar, sarmoyalarni jalb qilish va turizm biznesini rivojlantirish chora-tadbirlari ham katta ta'sir ko‘rsatmoqda.

“2022 — 2026 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori qabul qilindi.⁴

Qarorga ko‘ra, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, ayniqsa, Mo‘ynoq tumanining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va turizm salohiyatini targ‘ib qiluvchi matnli, video materiallarni qoraqalpoq, o‘zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlab, ommaviy axborot vositalarida, jumladan, televideniye va radioda muntazam yoritib boriladi hamda turistik ob'ektlarga tarqatiladi.

Xorijiy va mahalliy ommaviy axborot vositalari vakillari, jurnalistlar, blogger va vlogerlar ishtirokida infoturlar tashkil qilinib, ular yoritib boriladi.

Orolbo‘yi mintaqasining ijtimoiy va madaniy-ma'rifiy salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha “Orol orzusi” dasturida belgilangan chora-tadbirlar amalga oshiriladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda Turizm va madaniy meros vazirligi ikki oy muddatda Ellikqal'a tumanidagi “Sharq yulduzi” ovul fuqarolari yig‘inining “Aqchako‘l” hududida turistik dam olish maskanlari, savdo-ko‘ngilochar xizmatlarini tashkil etish va shu maqsadda zarur infratuzilmani barpo qilish bo‘yicha hududning bosh rejasi ishlab chiqiladi, ikki oy muddatda Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan Chimboy tumani “Kokshi qal'a” mahalla fuqarolar yig‘inida faoliyat olib borayotgan o‘tov

⁴ <https://advice.uz/uz/document/2850>



Date: 7th April-2025

(qora uy) tayyorlovchi hunarmandlar ustaxonalarini milliy ko‘rinishda ta‘mirlash va hududni obodonlashtirish ishlarini tashkil qiladi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi hamda Turizm va madaniy meros vazirligi mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda:

Orolbo‘yi muammolari, ularni bartaraf etish hamda mintaqada turizmni rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli ishlar bilan jahon hamjamiyatini yaqindan tanishtirish, xorijiy davlatlar, xalqaro tashkilotlar grantlari va investorlarning mablag‘larini hududga jalb qilish;

xorijiy hamkorlar uchun “Orol bo‘yi ezgu niyat elchilari” xalqaro muloqot platformasini tashkil etish va Mo‘ynoqda xalqaro konferentsiya o‘tkazish;

“yashil makon” umummilliy loyihasi doirasida yoshlarning ekologik madaniyatini oshirish, tashrif buyuruvchi mahalliy va xorijiy sayyohlar tomonidan Orolbo‘yi mintaqasining iqlimiga mos daraxt hamda saksovul ko‘chatlarini ekishni targ‘ib qilish;

respublikadagi yoshlarning Mo‘ynoq tumaniga tashrifini tashkil etish, mahalliy yoshlar ishtirokida madaniy-ko‘ngilochar tadbir va ekologik aktsiyalar tashkil etish choralarini ko‘radi.⁵

Mamlakatimiz turizm qo‘mitasi hamda Germaniyaning “Gesellschaft für internationale Zusammenarbeit — GIZ” tashkiloti bilan yaqindan hamkorlikda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan bir qator ishlar tashkil etilyapti.

Jumladan, ikki tashkilot hamkorligida Qoraqalpog‘iston Respublikasini noyob sayyohlik yo‘nalishi sifatida namoyon etuvchi «2023-2026 yillarda Qoraqalpog‘iston Respublikasida turizmni barqaror rivojlantirish» strategiyasi ishlab chiqildi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasining strategiyasi maqsadi — turizm mahsulotlarini diversifikatsiya qilish va xizmatlar sifatini ko‘tarish, infratuzilmani yaxshilash, yangi sayyohlik yo‘nalishlarini yaratish, eksportni oshirish va tashqi turizm bozorlarida targ‘ibot ishlarini olib borish, yangi ish o‘rinlarini yaratishga yo‘naltirilgan.

Strategiyaga muvofiq, bir qator ustuvor yo‘nalishlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan vazifalar belgilab olindi, deb xabar beradi Madaniyat va turizm vazirligi matbuot xizmati. Unga ko‘ra:

- Qoraqalpog‘iston hududida mehmonxonalar tizimida diversifikatsiya qilish, ya‘ni hududda yulduz toifali, shu jumladan, 4 va 5 yulduzli mehmonxona tashkil etish;

- mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun transport-logistika tizimini yaxshilash, xususan, mahalliy hamda xorijiy avia/temir yo‘l qatnovlarni tashkil etish. Kelgusida Qoraqalpog‘istonni mamlakatning turizm shaharlari, jumladan, Xiva, Buxoro va Samarqand shaharlari bilan transport aloqalarini o‘rnatish;

- tajriba va bilimga ega bo‘lgan ingliz, rus, nemis, frantsuz, ital‘yan, turk, ispan tillarida so‘zlashuvchi gidlarni tayyorlash, turizm sohasida kasb-hunar va oliy ta‘lim sifatini oshirish;

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 28.09.2022 yildagi 545-son

Date: 7th April-2025

- ushbu hududda sayyohlarning qolish davomiyligi (tunash) va ular tomonidan sarflanadigan xarajatlarni yiliga oʻrtacha 7-10 % ga oshirish;

- 2026 yilga kelib Qoraqalpogʻistonga keluvchi xorijiy turistlar sonini 180 000 (2022 yilda 50 ming) va mahalliy turistlar sonini 1 million nafarga yetkazish (2022 yilda 552 ming), turizm xizmatlari eksportini 13,5 dan 60 million dollarga yetkazish, joylashtirish vositalarida xonalar sonini 1 005 tadan 1 905 taga yetkazish;

- Eko, etno, madaniy-tarixiy, ziyorat, arxeologik, gastronomik va safari turizm yoʻnalishida yangi mahsulotlar yaratish hamda turistik dasturlar ishlab chiqish;

- Xorazm viloyati bilan qadimiy qal'alar boʻylab turizm marshrutini rivojlantirish, Savitsky muzeyi, Orol dengizi, Sudoch'ye koʻli va Ustyurt platosi imkoniyatlaridan samarali foydalanish;

- Marketing choralarni koʻrish va xalqaro sayyohlik platformalarida Qoraqalpogʻiston turizm mahsulotlarini joylashtirish.

Ma'lumki, bugungi kunda Qoraqalpogʻiston Respublikasida turizmning bir qator yoʻnalishlari jadal rivojlanib kelyapti.

Qoraqalpogʻistonning janubiy maskanlarida joylashgan qadimiy qal'alar va Nukus shahridagi dunyoga mashhur I.V.Savitskiy davlat san'at muzeyi — tarixiy-madaniy turizm, Orol dengizi va Ustyurt platosi — Ekoturizm, mahalliy madaniyat va urf-odatlarini yorqin namoyon etuvchi Chimboylik hunarmandlar — Etnoturizmning asosiy yoʻnalishlari sanaladi.

Mazkur turistik yoʻnalishlar qatorida Gastronomik turizm ham katta ahamiyatga ega boʻlib, qoraqalpoq xalqining an'anaviy oshxonasi oʻziga xos tomonlari bilan ajralib turadi.

Oʻzbekiston Respublikasining har bir viloyati oʻziga xos taomlariga ega boʻlganidek, Qoraqalpogʻistonning ham "Bes barmaq", "Jugeri gurtik", "Aqsaulaq", "Turama", "Mayek borek" va baliqdan tayyorlangan "Baliq qarma", "Ilonbaliqdan kotletlar", "Balıq sörpa" kabi taomlari oʻzining mazasi bilan har bir tashrif buyuruvchini bahramand qiladi.

Qoraqalpogʻistonning gastronomik turizm salohiyatini keng targʻib qilish maqsadida Turizm va madaniy meros vazirligining tashabbusi bilan 2017 yildan buyon "Orol baliqlaridan 99 tur taomlar" xalqaro gastronomik festivali oʻtkazib kelinadi. Mazkur tadbir milliy baliq taomlarini targʻibot qilib qoʻymasdan, hududdagi boshqa turistik yoʻnalishlariga ham mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilib kelyapti.

Keng qamrovli festival dastlab Qoraqalpogʻistonning oʻziga xos oʻlgan turistik maskani Moʻynoq tumanidan boshlangan va keyinchalik poytaxt Nukus shahrida ham oʻtkazilgan. Beshinchi marotaba tashkil etilayotgan bu yilgi festival joriy yil 29-30 sentyabr kunlari Qoraqalpogʻiston Respublikasining Taxtakopir tumanida oʻtkazildi.⁶

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Qoraqalpogʻistonda turizm rivoji uchun turpaketlar va qoʻllanmalar ishlab chiqdi. 2023 yil 20 iyunda Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti binosida universitet rektori hamda Qoraqalpogʻiston Respublikasi Turizm va madaniy meros vazirining birinchi oʻrinbosari oʻrtasida uchrashuv tashkil etildi.

⁶ <https://yuz.uz/news/orol-baliqlari> 4 октябрь 2023 йил



Date: 7th April-2025

Uchrashuvda Qoraqalpog'istonda turizmni rivojlantirish bo'yicha turli masalalar muhokama etildi.

Xususan, vazirning birinchi o'rinbosari joriy yil iyun oyi boshlarida TDIU tomonidan Ellikqal'ada o'tkazilgan "Sahro sadosi" festivali tumanga ko'pgina mahalliy turistlar oqimiga sabab bo'lganini e'tirof etdi.

Shu sababli kelgusida Xo'jayli va Taxtakopir tumanlari, qolaversa, Nukus shahrida ham shu kabi yirik festivallarni o'tkazish taklifi bildirildi.

Uchrashuv yakunida TDIU mutaxassislari tomonidan Qoraqalpog'istonga turistlarni jalb etish maqsadida ishlab chiqilgan turli xil turpaketlar va tarqatma materiallar Qoraqalpog'iston Respublikasi vakillariga taqdim etildi

Avval xabar qilinganidek, O'zbekiston Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi 2030-yilgacha turizmni rivojlantirish strategiyasini tasdiqlashni nazarda tutuvchi Prezident qarori loyihasini ishlab chiqdi.

Shu bilan birga, rivojlanish strategiyasida mamlakatda mahalliy turizmni rivojlantirishga to'sqinlik qilayotgan qator muammolar mavjudligi qayd etilgan.

Xususan, bu

- aviatashuvlarning yuqori narxlari, mahalliy va xalqaro aviakompaniyalarning potentsial bozorlarni past qamrab olishi;

- O'zbekiston Respublikasining viza siyosati va ro'yxatga olish tizimi turistlar oqimini ko'paytirishning asosiy cheklovchi omillaridan biridir.

- turistik hududlarda transport, ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasining sust rivojlanganligi, borish mumkin emasligi, turistik dam olish maskanlarida xizmat ko'rsatish darajasining pastligi, yo'l bo'yidagi infratuzilmaning rivojlanmaganligi;

- turizm sohasida malakali kadrlar yetishmasligi, shuningdek, ta'lim dasturlarining mehnat bozori talablaridan, ishlab chiqarish ehtiyojlaridan, ish beruvchilar kutganidan va boshqalardan uzoqligi;

- turizm va mehmonxona biznesini tartibga solishning yetarli darajada emasligi, xususan, joylashtirishning ayrim turlariga nisbatan qo'llaniladigan standartlarning yo'qligi, xodimlar va ish beruvchilarga nisbatan qo'llaniladigan ijtimoiy turizmni tartibga solish qoidalarining yo'qligi, turizm sohasi uchun soliq imtiyozlarining yo'qligi;

- sayyohlik biznesining rivojlanishiga to'siqlar, jumladan, ma'muriy to'siqlar va davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash vositalarini yanada takomillashtirish;

Bundan tashqari, ayni damda O'zbekiston ko'p maqsadli PR strategiyasining agressiv yo'qligi sababli ko'pchilik sayyohlar uchun turistik joy sifatida noma'lum.

Umuman olganda, turizmni rivojlantirishning asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston turizmi salohiyati to'liq amalga oshirilmayapti, chunki turizmni rivojlantirish zarur transport-logistika infratuzilmasiga ega zamonaviy raqobatbardosh turistik kompleksni shakllantirishga bevosita bog'liq tizimi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlarini (aviatsiya, avtomobil, temir yo'l) rekonstruksiya qilish va chegaradan o'tish jarayonini takomillashtirish, uni xorijiy fuqarolarning turizm xizmatlariga bo'lgan ehtiyojlariga moslashtirish zarur.



Date: 7th April-2025

Qayd etilishicha, turizmni barqaror rivojlantirishning muhim shartlaridan biri davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi hisoblanadi.

Xalqaro tajriba o'rganilganda ma'lum bo'ldiki, davlat tomonidan turizm infratuzilmasini rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratish, xususiyl investorlarni jalb qilish, qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan qulay iqtisodiy sharoitlar yaratish bo'yicha faol siyosat olib borilayotgan mamlakatlar turizm industriyasi sub'yektlarining faoliyati uchun katta byudjet mablag'lari ajratadi. milliy loyiha va dasturlarni amalga oshirish uchun mablag'lar.

Ammo shuni ta'kidlash kerakki, turizmdan to'g'ridan-to'g'ri va bilvosita daromadlar uni rivojlantirish xarajatlarini tezda qoplaydi, bu esa turizm sohasini mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining eng muhim dvigatellaridan biriga aylantiradi.

Bugungi kunda Qoraqalpog'iston Respublikasi hozirgi davr bilan bog'langan qadimgi o'tmish merosiga ega. Bunga 131 ta arxeologik topilmalar, 25 tasi kiradi me'moriy namunalar, 89 ta monumental san'at yodgorliklari, 40 ga yaqin diqqatga sazovor joylar. Hozirgi kunda Respublikamizda 40 dan ortiq turistik tashkilotlar faoliyat yuritmoqda. Qoraqalpog'iston qariyb 18 asrlik tarixdan hikoya qiluvchi "Ayazqal'a" arxitekturasi yaxshi saqlangan va respublika hududida joylashgan eramizning IV asriga to'g'ri keladi, o'lkashunoslik muzeyi va qurigan orol dengizi marshrutlari, Endi faqat dengiz haqida gapiradigan kemalar keladi.

Buyuk Britaniyaning Bradt Guides nashriyoti dunyodagi eng noyob sayyohlik hududlari ro'yxatini e'lon qildi. Unda 2023 yilda sayohat qilish uchun Qoraqalpog'iston Respublikasi tavsiya etilgan. Chili, Kosta-Rika, Isroilning noyob diqqatga sazovor joylari qatoriga kiritilgan.

Bradt Guides kompaniyasining mutaxassislari bu ko'proq ekanligini ta'kidladilar.

2023 yilda yangi aeroport ishga tushirilishi natijasida Qoraqalpog'istonga borish sayyohlarga qulaylik tug'dirmoqda. Kelajakda tezyurar poyezdlar qatnovini yo'lga qo'yish, Markaziy Osiyodagi eng yirik elektron musiqa festivali o'tkazib borilishi, Ralli Mo'ynoq poygalari o'tkazilishi, sahrodagi Luvr muzeyining jahonga mashhur avangard kolleksiyasiga boyligi ushbu hududning turizm salohiyatini namoyon qiladi, Qoraqalpog'iston Respublikasiga kelgan har bir sayyoh, albatta, Savitskiy nomidagi Qoraqalpog' davlat san'at muzeyiga borish odat tusiga kirgan.

Agar transport sohasiga nazar tashlasak, bir necha soatda manzilga etish imkoniyatlari kengaymoqda. Hozirgi vaqtda turistik firmalar maxsus avtobus va mikroavtobuslar bilan ta'minlangan. Respublikamizning nafaqat tarixiy va afsonaviy shaharlari balki Qoraqalpog'iston ham rivojlanib bormoqda.

Hozirda Qoraqalpog'iston Respublikasida 11568 gektar qo'riqxonalar mavjud bo'lib, bu qo'riqxonalarda 826 bosh Buxoro bug'ulari, suv havzalarida esa 10 dan ortiq hayvonlar turlari, baliqlarning 43 turi, sudralib yuruvchilarning 11 turi, tulki shaqol kabilar mavjud. Ellikqal'aning Navoiy ovulida, oston straus fermasida boqiladigan tuyaqushlar, Amir Temur botanika bog'ida Ellikqal'a tumani markazida turli hududlardan keltirilgan 200 tup tup o'simliklar o'sadi. Bu misollar hududda ekologik turizm salohiyati



Date: 7th April-2025

mavjudligini va ushbu manzillarga turistik marshrutlarni yo'lg qo'yish, sayyohlarga targ'ibot qilish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. N.S. Ibragimov. Turistik hududni barqaror rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari: monografiya / - Buxoro : "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2020
2. Crouch, G.I. and J.R.B. Ritchie (2005). 'Application of the Analytic Hierarchy Process to Tourism Choice and Decision Making: A Review and Illustration Applied to Destination Competitiveness', Tourism Analysis, 10(1): 17-25.
3. Саати Т. Л. Об измерении неосязаемого. Подход к относительным измерениям на основе главного собственного вектора матрицы парных сравнений // Журнал "Cloud Of Science". 2015. Т. 2. № 1
4. <https://advice.uz/uz/document/2850>
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 — 2026-Yillarda Qoraqalpog'iston Respublikasining turizm salohiyatini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida 545-sonli qarori, 28.09.2022 yildagi
6. <https://yuz.uz/news/Янги Ўзбекистон даврий нашр, 5 май 2023йил>